

S.Tuygunov
99541 HARBIY QISM KOMANDIRINING
YORDAMCHISI YURISKONSULT
adliya leytenantı

JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISHNI RAD QILISHNING AYRIM JIHATLARI

Annatatsiya: Ma'muriy yoki jinoiy ish yurituvni asoslarini yaratishda davlatda o'rnatilgan va olib borayotgan siyosiy faoliyat muhim ahamiyatga ega. Har qanday davlat o'z boshqaruv rejimini belgilash orqali boshqa ijtimoiy munosabatlarga ham yo'nalish belgilab beradi. Yangi O'zbekistonning ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik masalalarida davlat rahbarimizning liberalallashtirish siyosati natijasida fuqarolarning huquqlari yanada himoyalanishi, inson qadri ulug'lanishiga zamin yaratilmoqda.

Davlat tomonidan o'rnatilgan huquq tizimini mustahkamlashning bir qancha usullari mavjud. Shunday usullardan biri qonunchilik normalarini liberalallashtirishdir. Mamlakatimizda mazkur jihatga alohida e'tibor berilib kelinadi. Masalan, Jinoyat kodeksi umumiy qismiga "Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar" 3-bo'lim qoidalarining kiritilishi, jazo qo'llash holatlarida belgilangandanda yengilroq jazo tayinlanishi (Jinoyat kodeksi 57-modda), ma'lum holatlarda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilgan bo'lsada, javobgarlikdan ozod qilish (Jinoyat kodeksi XII bobi) asosiysi mamlakatimiz jinoiy javobgarlik tizimidan o'lim jazosining bekor qilinishi¹ davlatimizda inson qadri ulug'lanishining ifodasidir.

Yuqorida keltirib o'tilgan jinoyat qonunchiliginu liberalallashtirish tizimini amalga oshirishning ayrim jihatlarida muammoli holatlar kelib chiqmoqda. Jumladan, Jinoyat kodeksining 3-bo'limi "Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar" qoidalaridan jinoyat ishini yuritish protsessida foydalanish holatlarining huquqiy asoslari yetarli darajada shakllantirilmagan. Buning natijasida yuqoridagi bo'lim qoidalarini qo'llashda turli xil qarama-qarshiliklar vujudga kelmoqda.

Jinoyat kodeksi 35-moddasida qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar tushunchasiga "Qilmishda ushbu Kodeksda nazarda tutilgan alomatlar rasmiy jihatdan mavjud bo'lsa-da, lekin u ijtimoiy xavfli, g'ayriqonuniy yoki aybli bo'lmasa, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar deb topiladi", deb ta'rif berilgan. Mazkur moddaning 2-qismida qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarning turlari ko'rsatilgan bo'lib, ularni kam ahamiyatli qilmishlar, zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash chog'ida zarar yetkazish, buyruqni yoki boshqacha tarzdagi vazifani bajarish, kasb yoki xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan asosli tavakkalchilik kabilalar tashkil etadi.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha holatlarda Jinoyat kodeksiga asosan jinoyat tarkib jihatdan mavjud bo'lsada, ayrim alohida holatlarda sodir etilgan xatti- harakatlar jinoyat hisoblanmaydi, deb belgilangan. Jinoyat kodeksi bilan jinoyat deb topilmagan yoki jinoiyligi istisno etilgan holatlarda jinoyat ishini hal etish tartibi ham shunga mutanosib hal etilishi lozim. Jinoyat kodeksi qoidalarining jinoyat protsessida to'la tadbiq etishda nomutanosiblik turli muammoli holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Hozirgi kunda shunday muammoli holatlardan biri bu Jinoyat-protsessual kodeksida qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarni hal etish belgilab berilmaganligidir. Bir qonunchilik qilmishni jinoyat deb topmasa, ikkinchisida mazkur qilmish

¹ 2005 yil 1 avgustdag'i O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3641-sonli farmoni.

bo'yicha yuritilayotgan ishini rad qilish uchun asos bo'lmasa qonunlar o'rtasida nomutanosiblik kelib chiqadi. Bizningcha, Jinoyat protsessual kodeksining 333-moddasida ko'rsatilgan jinoyat ishini rad qilish asoslari sifatida ko'rsatilgan Jinoyat -protsessual kodeksining 83-moddasining 1 va 2-bandlari hamda 84-moddasi birinchi qismining 1,3-8-bandlaridan hech biri mazkur holatda jinoyat ishini rad qilish uchun asos bo'la olmaydi. Jinoyat protsessual kodeksining 83-moddasi 1-bandida "ish qo'zg'atilgan va tergov harakatlari yoki sud muhokamasi o'tkazilgan ish bo'yicha jinoiy hodisa yuz bermagan bo'lsa", deb qayd etilgan. Mazkur bandning dastlabki so'zidan e'tibor qaratadigan bo'lsak, ish qo'zg'atilgandan so'ng qo'zg'atilgan jinoyat ishini tugatish uchun asos bo'lishiga amin bo'lamic. Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasi 1-bandi nafaqat qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi, balki boshqa holatlarda ham jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish qaroriga asos bo'la olmaydi. Undan Jinoyat - protsessual kodeksining 373-moddasida ko'rsatilgandek, jinoyat ishini to'xtatishda asos sifatida foydalanish mumkin.

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, hozirgi kunda o'zgalar mulkini talon-taroj qilish jinoyatlar statistikasi yildan yilga oshib bormoqda. 2023-yil jami 104 096 ta jinoyat ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, ulardan yarimi ya'ni, 58 418 tasi jinoyat ishlari sudida ko'rilib. Tahliliga ko'ra o'tgan yili firibgarlik jinoyati 18 492 tani, o'g'rilik jinoyati 14 851 tani, tovlamachilik 438 tani, talonchilik va bosqinchilik 762 tani tashkil etgan². Yuqorida ma'lumotlar mazkur jinoyatlar salmoqli darajada ko'pligini, ular bilan ishslash tizimini muntazaam takomillashtirib borish kerak ekanligini ko'rsatadi. Shunday holatlar borki, o'zgalar mulkiga yetkazilgan zararning miqdori juda kam miqdorda bo'lsada Jinoyat kodeksi talablaridan kelib chiqib o'zgalar mulkini talan-taroj qilish harkatlarining jinoyat deb hisoblanishi uchun minimum miqdor mavjud emas. Tomonlarning o'zaro kelishuvidan so'ng qo'zg'atilgan jinoyat ishi tugatiladi. Bu esa surishtiruv va tergov organlari tomonidan ortiqcha ovoragarchiliklarga sabab bo'lmoqda. Mazkur holatda Jinoyat kodeksining 36-moddasini qo'llab, ishni Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasi 2-bandini asos qilib jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish holatlari ham ko'plab uchrab turibdi. Bunday protsessual xatolikka yo'l qo'yilishi sababi sifatida ish hajmining ko'pligi va Jinoyat-protsessual kodeksida jinoyat ishini rad qilish me'yorlarining zamon talablariga to'la mos emasligini ko'rsatish mumkin.

Jinoyat-protsessual kodeksi boshqa qonunchilik normalari singari ma'lum ijtimoiy munosabatni tartibga solish faoliyatini belgilab beradi. Sodda qilib aytganda, jinoyat-protsessual normalar talablaridan kelib chiqib vakolatli davlat organlarining jinoyat haqidagi kelib tushgan ma'lumotidan boshlab holat yuzasidan sudning ayblov qarori chiqishi va undan keyingi holatlarda faoliyat tartibi belgilanadi. Shuning uchun mazkur kodeksning har bir moddasi ma'lum maqsad va vazifaga yo'naltilirgan. Biz hozirgi kungacha foydalanib kelayotgan Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasining asosiy maqsad va vazifasi o'z nomi bilan reabilitatsiya uchun asoslardir. Undan kodeksda jinoyat ishini rad etish uchun foydalanish menimcha maqsadga muvofiq emas. Jinoyat-protsessual kodeksiga qonunchilikda liberallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar va Jinoyat kodeksini ayrim modda talablarini inobatga olgan holda amalda bo'lgan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish asoslariga o'zgartirish va tuzatishlar kiritish lozim.

² O'zbekiston respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi-<https://lib.stat.uz>